

YOSH XIVALIKLAR – ERK SARI QADAM

Abdullayeva Durdona Ravshonbekovna*O‘zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar
universiteti magistranti*

Annotatsiya. Ushbu maqola XXasrda Xiva xonligida vujudga kelgan “Yosh xivaliklar” faoliyati yuzaga kelish sabablari, amalga oshirgan islohotlari, shuningdek dasturlari haqida qisqacha ma’lumot beradi. Shu bilan birga, Yosh xivaliklar faoliyati haqidagi shaxsiy qarashlar bilan boyitilgan. Uning bugungi kundagi ahamiyati, yutuqlari va kamchiliklari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Xiva xonligi, Yosh xivaliklar partiyasi, Rossiya imperiyasi, Gandimiyon shartnomasi, manifest, Islomxo’ja, o’ng va so’l oqimlar

Kirish. XX asrda O’rta Osiyoda katta ijtimoiy-siyosiy siljish yuzaga keldi. Turkistondagi yangi siyosiy qarashlar, muxolifat kuchlarning vujudga kelishi, ularning maorif va fan yo’lidagi islohotlari, erk uchun kurashlari Xiva xonligiga ham o’z ta’sirini o’tkazmay qolmadi.

Rossiya impriyasi va Xiva xonligi o’rtasidagi kechayotgan keskin jarayonlardan so’ng, 1873-yilda Xiva yaqinidagi Gandimiyon qishlog’ida tinchlik shartnomasi imzolandi. Shartnomaga ko’ra Xorazm Rossiya proktektoratiga aylanadi. Aynan shu davrda Muhammad Feruzxon II Xiva xonligida o’z hukmronligini olib borayotgan edi. Muhammad Feruzxon II ma’rifatparvar, jadidchilik g’oyalarini yoqlovchi hukmdor bo’lgan. U 1884-yilda rus o’qituvchisi xizmatidan foydalangan holda Xivada maktab ochtiradi. Sababi bu davrda rus tilini biluvchi insonlar kam bo’lib, davlat tashqi ishlarida muloqot qilishga biroz qiyinchiliklar vujudga kelgan. Ana shunday rus tuzem maktablarida tahsil olgan xonning farzandi Asfandiyorxon bu sohada yetakchilik qila boshlaydi. U hattoki, qo’shni o’lkalardan gazetalar ob keltirib, qanday voqealar yuz berayotganidan boxabar bo’lib turgan. Bu esa mamlakat boshqaruvida islohotlar o’tkazishga, jadidchilik harakatlarining vujudga kelishiga turtki bo’lgan desak ham bo’ladi. Ammo asosiy uchqun bo’lgan hodisa bu 1898-yilda Peterburgdagi inqilobiy faoliyat tufayli Xiva xonligiga surgun qilingan talabalarning Rossiya hududidagi o’zgarishlarni, turli oqimdagi qarashlarni o’zlari bilan birga olib kelishidir. Shuningdek, xonlikdagi og’ir ijtimoiy tuzum, soliq-to’lovlar, xalqning og’ir ahvoli jadidchilik harakatiga katta turtki beradi. 1905-1907-yillarda ilk jadidchilik harakati vujudga kela boshladi. Bir so’z bilan aytganda, jadidlik harakatida tatar millatining o’rni ham bor. Sababi o’sha davrda ular xalqqa tushunarli bo’lgan tildagi tatar gazetalarini, ro’znomalarini olib kelib tarqatayotgan edi. Biz ushbu jadidchilik harakatini, ba’zi mablarda o’ng va so’l oqimlarga ajratish joiz emas deyilgan bo’lsada, tushunishga va ajratishga oson bo’lishi uchun 2 oqimga bo’lib o’rganamiz.

O’ng oqim. U o’zida o’lkada rivojlanayotgan savdo-sotiq korxonalari egalarini, yirik-yirik boylarning vakillarini birlashtirgan. Bu oqimga bosh vazir Islomxo’ja boshchilik

qilgan. Maqsadi: mamlakatda xon hokimiyatini saqlab qolgan holda , sotsial-iqtisodiy islohotlarni o'tkazish orqali kapitalistik munosabatlarni rivojlantirish bo'lgan.

Islomxo'ja 10 moddadan iborat hokimlarga ko'rsatmalar ishlab chiqqan. Ular:

- 1.Xonlikdagi mansabdor va xizmatchilarga lavozimiga qarab oylik maosh belgilash;
- 2.Dehqonlardan soliq olishni tartibga keltirish va soliq oluvchilarni 3 tabaqaga ajratish;
- 3.Zakot, boj, xiroj kabilarni tartibga solish;
- 4.Aholidan savdo-sotiq uchun olinadigan soliqlarni tartibga solish;
- 5.Yerlarni sug'orish ishlarini tartibga solish;
- 6.Yo'llar , temir ko'priklar qurish va pochta telegraf xizmatini tashkil qilish;
- 7.Shaharlarda kasalxonalar qurish, qishloqlarda feldsherlik xizmatini ochish, tibbiy xizmatchilarni taklif etish;
- 8.Barcha vaqf yerlarini markazlashtirish va daromadlarini maorif ishlariga sarflash;
- 9.Barcha maktablarda yangicha o'qitish usuliga o'tish, maktablar dasturiga rus tili , geografiya, tarix fanlarini majburiy qilib kiritish;
- 10.Xon xazinasini hisobini yuritish, kirim-chiqim kitoblarini olib borish.

Bu islohotlar tez tatbiq etila boshlanan, ammo Asfandiyorxon va Islomxo'janing aloqalari yaxshi bo'lmaganligi sababli, turli kuchlar orqali Islomxo'ja 1913-yilda o'ldiriladi. Bu endi shakllanib kelayotgan Yosh xivaliklar partiyasiga katta salbiy ta'sirini ko'rsatadi.

So'l oqim. Bu oqim tarkibiga mamlakatdagi mayda burjuaziya , hunarmandlar, va menatkashlarning turli tabaqa vakillari jamlangan bo'lgan, uning rahbari Boboxxun Salimov bo'lgan. U taraqqiyparvar g'oyalarga moyil inson bo'lganligi bilan ajralib turgan. Undan tashqari so'l oqimda Polvoniyoz hoji Yusupov, Avaz O'tar o'g'li, Otajon Safayev , Xudoybergan Devonov, Mulla Bekchon Rahmonov, Otajon Abdolov, Husainbek Matmurod devonbegi o'g'li, Mulla Jumaniyoz Sultonmurod kabi taraqqiyparvar kishilar bo'lgan. Bu oqimni progressiv kayfiyatdagi savdo-sotiq doiralari quvvatlab, "Jamiyati hayriya"ni tuzadilar. Bundan asosiy maqsad jadid maktablarini ochishga ko'maklashish bo'lgan.

Birinchi jahon urushi boshlanganda, Xiva xonligi zimmasiga katta yuk tushadi. Xalqning ahvoli ancha og'irlashadi, haqsizlik hukm suradi, undan tashqari Asfandiyorxonning olib borayotgan siyosati nozoriliklar keltirib chiqaradi. Aynan shu davrda Boboxxun Salimov bunga qarshi kurashishni boshladi. 1916-yil yanvar-fevral oylarida xonlikda qo'zg'olon bo'lib o'tadi. Buni Boboxxun Salimov Junaidxon yordamida amalga oshirgan. 1917-yildagi Rossiya inqilobi davrida, Asfandiyorxon Yaltada dam olayotgan bo'ladi. U xonlikka qaytganda esa taxtdan ag'dariladi. Shu yilning 5-aprel kuni esa namoyish ishtirokchilari saroyga kelib xondan mafliis tuzishga rozilik oladilar va shu yerda shoshilinch manifest tuziladi. 1918-yilda esa Yosh xivaliklar o'z dasturlarini ishlab chiqadilar. Bunda ular o'zlarini Xiva inqilobiy partiyasi deb ataydilar. 1920-yil 8-yanvarda esa "Известия" gaetasida 12 moddadan iborat "Xiva inqilobchilar partiyasining yaqin vazifalari" dasturi e'lon qilinadi. Undan tashqari partiya a'zolari turli hududlarga inqilobiy uyushmalar tuzishga jo'natiladi. 1918-yil 4-avgustda Toshkentdagi inqilobiy qo'mita a'zosi Mulla Jumaniyoz Sultonmurodov nomiga 12-sonli mandat nusxasi ham tasdiqlanadi. U haligacha

qo'lyozma sifatida olib qolingani, e'tiborli jihati qo'mita shtampi va muhri to'liqligicha saqlanib qolgan.

Umumiy qilib fikr yuritadigan bo'lsak, Yosh xivaliklar partiyasi 1904-1905-yillarda hamfikrlar, 1910-yil boshlarida manfaatlar guruhi sifatida , 1917-yilda amaladorlar, ma'rifatli boylar, milliy burjuaziya va ziyolilarning Xiva xoniga muholifatdagi siyosiy kuch, 1918-yil 5-iyunda esa o'z dasturi,tuzilishi, muhriga ega bo'lgan rasmiy tashkilot sifatida to'la shakllanganligiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Yosh xivaliklar partiyasi faoliyatining asosi xalq manfaatlariga qaratilgan . Maorif, ta'lim tizimi eng yuqori o'rinni egallagan. Sababi insonlarni ongini o'stirmasdan turib, yorqin kelajak sari ularni yetaklab bo'lmas edi. Shuning uchun jadidlar ijtimoiy sohalarga alohida urg'u berishgan. Fan, ta'limning qanchalik ijtimoiy hayotimizda muhimligi bugungi kunda ham o'z ifodasini yo'qotmagan. Jadidlar olib borgan islohotlar mana oradan necha yillar o'tibdiki, hamon ahamiyatli.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston tarixi(1917-1991-yillar) Q.Usmonov,M.Sodiqov 2010.
2. Алихонтўра Соғуний. “Туркистон қайғуси”.-Т.: “Sharq”nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh taxririya-2003.
3. Eshov Bohodir. O'zbekistonda davlat va maxalliy boshqaruv tarixi. -Т.: “Yangi asr avlodi”-2001.
4. Xo'jayev Fayzulla. Tanlangan asarlar: 3-jildlik, 2-jild-T.: “Fan”-1978
5. O'zbekiston Respublikasi.Ensiklopediyasi.-T: “Qomuslar bosh tahririya”- 1997